

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY USLUB TUSHUNCHASI VA UNING ELEMENTLARI

Abbasova Nargiza Kabilovna

Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili kafedrası katta o‘qituvchisi

Musinova Zuhra Ma‘rifjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili)

yo‘nalish magistranti

zuhraxonmosinova0@gmail.com

Maraimova Madinabonu Mo‘sin qizi

Farg‘ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili)

yo‘nalish magistranti

madinabonumaraimova05@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda badiiy uslub tushunchasi va uning elementlari haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** Badiiy uslub, badiiy nutq, so‘z san‘ati, timsollar tizimi, badiiy to‘qima, yozuvchi fantaziyasi, proza, poeziya, drama, janr.*

Xoslangan uslublarning har bir turi ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasi uchun xizmat qilishi va inson amaliy faoliyatining muayyan doirasiga mansublik bilan farqlandi. Shu sababli ular nutq faoliyatning ma‘lum sohasiga taalluqli bo‘ladi. Badiiy nutq uslubi juda xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutq uslubi mualliflarga asarning estetik ta‘sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida tiya obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy nutq uzining obrazlilik Bilan adabiy tilning boshqa funktsional uslublaridan ajralib turadi. Badiiy

adabiyotda soʻzlarni obrazli ishlatish badiiy obraz yaratish va xayotni tasvir yoʻli bilan tahlil etish vositasidir. Badiiy nutq uslubida Ayniqsa, individual obrazli soʻz va iboralar juda katta taʼsir kuchiga ega. Aabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylik qimmatini belgilovchi asosiy oʻlchovlardan biridir. Agar asar uslubida individuallik sezilmasa, bunday asar trafaret, badiiy sayoz asar sifatida tasavvur qilinadi.

Soʻz yozuvchining quolidir. Soʻz oʻldirishi ham, davolashi ham mumkin. Yozuvchi nutqi va tilining boy yoki qashshoqligini yozuvchining soʻz qoʻllash mahoratiga qarab belgilaymiz. Ayniqsa, iboralar yozuvchi asarlarini oʻqimishli, jozibali va xalqchilligini taʼminlaydi. Badiiy nutq soʻz sanʼatiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid boʻladi. Funktsional jixatidan chegaralangan emas. Mazmun doirasi nixoyatda keng. Badiiy uslubda adabiy til va umumxalq tili vositalari va ularga xos bor imkoniyatlar nisbatan keng va toʻliq namoyon boʻladi. Proza, poeziya, dramaturgiya va rang barang janrlardan iborat, majoziy fikrlar manzaralar asosiy oʻrin tutadi. Badiiy toʻqima va yozuuvchilar fantaziyasi ishtirok etadi. [2, 25]

Badiiy nutqda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamlariga mansub soʻz va iboralarning, turli nutq uslublarining unsurlarini xatto butun parchalarning keng va faol ishlatilishi. Muhimi soʻzning turli timsollar ifodalashi tasavvurlar uygotishga yoʻnaltirilganligi. Bugun bir tasviriy-taʼsirchan vositalarning silsilasiga, uslubiy sanʼatlar majmuiga egaligi. Badiiy uslubning nutq nafosatiga daxldorligi. Badiiy nutq uslubiyati boy tarixi va anʼanalari bilan oʻzbek tili stilistikasining poydevori yaratilganli oʻziga xos xususiyatlaridir.

Maʼlumki, badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli estetik idrok kdpishi madsuli sifatida paydo buladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning oʻzi ham, badiiy butunlik sifatida ukuvchi(tinglovchi) tomonidan tushunilishi, idrok etilishi xam murakkab estetik faoliyatdir. I.Xovanskaya bunday estetik faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib koʻrsatadi: 1) muallif niyatining va ijodkor ongida voqelikning estetik inʼikosi natijasida badiiy obrazlarning paydo boʻlishi; 2) badiiy obrazlarning estetik materialda gavdalanishi, yaʼni ularning tegishli sanʼat turi vositalari orqali modtsiylashuvi va estetik faoliyat mahsuli sanʼat asarining

yuzaga kelishi; 3) san'at asarining omma tomonidan qabul qilinishi, ya'ni estetik idrok jarayoni. Ana shunga asosan, u adabiy faoliyatni shunday munosabatlar zanjiri sifatida tasavvur qilish mumkinligini aytadi, ya'ni: voqelik yozuvchi asar o'quvchi. Badiiy matnning lingvopoetik taxlilida ana shu turt xalqali zanjir hamisha e'tiborda bo'lmog'i lozim. [1, 96]

Badiiy matnning o'zi benihoya murakkab va uni o'quvchi, idrok etuvchilar tomonidan to'ligicha bir xil talqin etilishi mumkin bo'lmagan (zarur ham bo'lmagan) xodisa bo'lganligi uchun ham uni lingvopoetik taxlil etishning aniq, bir modeli yaratilgan emas. Tilshunoslik va til ta'limi amaliyotida fonetik taxlil, morfologik taxlil yoki sin-taktik taxlil kabi tekshirishning aniq, tamoyil va usullari turg'unlashgan. Ammo lingvopoetikada xali bu darajaga kelingan emas. Turli o'quv adabiyotlarida badiiy matnning lisoniy taxdili tamoyillari umumiy tarzda tavsiya etilgan. Uzbek filologiyasida M.Yokubbekova xalq qo'shiqlarining lingvopoetik tahlili tamoyillarini ishlab chiqishga xarakat qilgan, aytish mumkinki, bu borada samarador tamoyillarni belgilashning uddasidan chikdan. Bizning kuzatishlarimizga kura, badiiy matnni lingvopoetik taxdil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni aloxida ajratib ko'rsatish mumkin. [3, 120]

Badiiy uslub (tilning ta'sir qilish, targ'ibot, tashviqot vazifasi) - inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi, o'quvchiga va tinglovchiga emotsional ta'sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qilib turadi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslub keng imkoniyatga ega uslub turi hisoblanadi. Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, unda o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga

chiqqan nutq ma'lum voqea- hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub so'z sa'natiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional jihatdan tadqiq chegaralangan emas. Uning mazmun doirasining nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasi natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiya asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlatiladi hamda estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. [4, 23]

Badiiy asar, demakki, badiiy matn xam shaklan, ham mazmunan mutlako uziga xos bulgan murakkab va serkatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun kdncchalik muxim balsa, shakl xam shunchalik favkulodda axamiyatlidir. Ta'bir joiz balsa, aytish mumkinki, ba'zan shakl xatgo mazmun daraja-siga kutarilishi, mazmun makrmini olib, xakikdy mazmunning kimmatiga (badiiyat maksadi taqozosi bilan) daxl qilishi ham mumkin. Albatta, tabiat va jamiyatning, kattadir-kichikdir, xar bir xodisasida xamisha u yoki bu tarzda namoyon buladigan shakl va mazmunning dialektik birligi qonuniyati badiiy matnga ham begona emas. Ammo bu dialektik qonuniyat chinakam ma'nodagi barkamol badiiy asarda tamoman o'ziga xos tarzda, tabiat va jamiyatning boshqa xech bir xodisasiga o'xshamagan xolatda yashaydi.

Badiiy matndagi tilni faqat shakl, unda ifodalangan voqealar tizmasini mazmun deb qarash, badiiy asardagi shakl va mazmun birligini, mutanosibligini ana shunday dixotomiyadagina tasavvur qilish badiiy so'z san'atining moxiyatini jo'nlashtirishdan boshqa narsa emas. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi maxorati, bundagi individual xususiyatlar aloxida qimmatga ega. V.Odintsov xakdi ravishda ta'kidlaganidek, badiiy matndagi emotsional-badiiy struktura "tabiiy" (ya'ni tushunchalarning real bog'lanishlari va munosa-batlarini aks ettiradigan) mantiqiy strukturalarni transformatsiya qiladi, shuning uchun ham boshqa asarlarga qaraganda badiiy asarda shakl juda katta axamiyatga molikdir. Haqiqatki, xatto faqat she'rdagina

emas, balki nasrda ham shaklni uzgartirish matnni buzish, o'ldirish demakdir tarzidagi eskirib, siyqasi chiqib bo'lgan. Ammo shundan kelib chiqqan holda, badiiy matnda shakl birlamchi, mazmun esa ikkilamchi deb bo'lmaydi, ularning xar ikkisi ham muxim, faqat ular orasidagi dialektik munosabatning namoyon bo'lish tarzi o'ziga xosdir. [5, 67]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M, Fattaxova, Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018;
2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: "Barkamol fayz media", 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b;
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456 b.